

DAVLAT ISHTIROKIDAGI AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING
FOND BOZORIDAGI ISHTIROKI TADQIQI

*Bank-moliya akademiyasi kafedra mudiri
i.f.d. prof. Elmirzayev Samariddin Eshquvatovich
Tojiddinov Dilshod Tulanbekovich
Bank-moliya akademiyasi magistranti*

Annotatsiya: Ushbu tezisdavlat ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlarining fond bozoridagi ishtiroki tadqiqi **haqida so‘z yuritiladi.**

Kalit so‘zlar: aksiyadorlik jamiyati, davlat ishtiroki, fond bozori, aksiyaga egalik huquqi, xususiylashtirish, moliya vositachiligi, risklarni boshqarish, qimmatli qog‘ozlar, investitsiyalar.

Annotation: This thesis deals with the study of the participation of joint-stock companies with state participation in the stock market.

Key words: Joint stock company, state participation, stock market, share ownership, privatization, financial intermediation, risk management, securities, investments.

Аннотация: Данная дипломная работа посвящена исследованию участия акционерных обществ с государственным участием на фондовом рынке..

Ключевые слова: Акционерное общество, государственное участие, фондовый рынок, владение акциями, приватизация, финансовое посредничество, управление рисками, ценные бумаги, инвестиции.

O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 6-maydagi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqidagi O‘RQ-370-son Qonunida jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali). Jamiyatning aksiyalari, obligatsiyalari va boshqa qimmatli qog‘ozlari, jamiyatning sof aktivlari deb e’tirof etilib, ushbu qimmatli qog‘ozlarni fond bozoriga joylashtirish, e’lon qilish hamda agar qimmatli qog‘ozlar fond birjasining birja kotirovkasi varag‘iga kiritilgan bo‘lsa, ularning birja kotirovkalari mazkur qimmatli qog‘ozlarning bozor qiymati ekanligi e’tirof etilgan. (O‘RQ-370, 2014)

O‘zbekistonda davlat ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlari fond bozorida ishtirokini oshirishga qaratilgan harakatlar amalga oshirilmoqda. Bu milliy va global moliya bozorlarida aksiyadorlik jamiyatlarining nufuzini oshirish imkoniyatini yaratadi.

“Jahon miqyosida davlat korxonalarini xususiylashtirish nazariy va empirik nuqtai nazardan keng o‘rganilgan, chunki bunday faoliyat siyosatchilar, investorlar, iste’molchilar va ishchilarni o‘z ichiga oladi. Umuman olganda, davlat korxonalarini xususiylashtirish davlat daromadlarini oshirish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish, davlatning iqtisodiyotga aralashuvini kamaytirish, aksiyalarga egalik huquqini kengaytirish, raqobatni joriy etish imkoniyatini ta’minlash, davlat korxonalarini bozor intizomiga bo‘ysundirish va milliy kapital bozorini rivojlantirish kabilar asosiy maqsadlar hisoblanadi”. (Jose E. Farinos va b.2007)

“Davlat ishtirokidagi korxonalarda davlat ushbu korxonalar va ularning qimmatli qog‘ozlari bilan bog‘liq bir qancha vazifalarni bajarishi mumkin. Xususan:

- aksiyadorlik jamiyati ovoz beruvchi aksiyalariga to‘liq egalik qilish;
- aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalar nazorat paketiga egalik qilish;
- aksiyadorlik jamiyati ustav kapitalida ma‘lum bir ulushga egalik qilish;
- oltin aksiya amaliyotini joriy etish”. (S.E. Elmirzayev, 2019)

Davlat korxonalarini va ularning fond bozoridagi ishtirokini o‘rganish asosida quyidagi xulosalarni keltirishimiz mumkin.

Birinchidan, davlat korxonalarining iqtisodiyotdagi yuqori ulushi iqtisodiy rivojlanishni sekinlash ishiga xizmat qiladi. Bunday vaziyat davlat tomonidan iqtisodiyotda o‘z ulushini qisqartirish, ya‘ni xususiylashtirish chora-tadbirlari amalga oshirilishi lozim. Xususiylashtirish amaliyotini fond bozori orqali amalga oshirilishi ko‘p tomonlama foydali bo‘ladi. Bunda korxonalar xususiylashtirilishidan tashqari fond bozorini rivojlantirish, fond bozori ishtirokchilari tarkibini kengaytirish, korxonalariga katta hajmda kapital jalb qilish kabi ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Ikkinchidan, davlat korxonalarini tomonidan mahalliy va xalqaro fond bozorlariga obligatsiyalar joylashtirilishi davlat korxonalarini faoliyatini kengaytirish va yangi loyihalarni amalga oshirish uchun arzon va katta hajmdagi moliyaviy resurslar jalb qilish imkonini beradi. Qolaversa, bunday amaliyotlar orqali davlat korxonalarining investitsion jozibadorligi oshadi hamda korxonaning bozor qiymati o‘sadi. Shuningdek, xalqaro fond bozoridagi ishtirok xorijiy investorlarni jalb qilish imkonini paydo bo‘ladi.

Uchinchidan, davlat korxonalarining fond bozoridagi ishtirokini kengaytirish orqali aholining fond bozorida oladigan qo‘shimcha daromadini shakllantirishga, aholi qo‘lidagi bo‘sh pul mablag‘larini iqtisodiyotga jalb qilsishga ham imkon yaratadi. (H. axmedov, 2022)

XULOSA

Davlat ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlari (AJ) iqtisodiy tizimning muhim bo‘g‘ini hisoblanadi. Ular davlatning iqtisodiy siyosatini amalga oshirishda, investitsiya jalb qilishda va jamiyatni barqaror rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Fond bozorida ishtirok etish orqali davlat AJ lar moliyaviy resurslarini jalb qilish, investitsiya muhitini yaxshilash va korporativ boshqaruvni takomillashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Asosiy masalalar

Davlat AJ larining moliya resurslari: Davlat AJ lari fond bozorida o‘z aksiyalarini chiqarish orqali investitsiya jalb qiladi. Bu, o‘z navbatida, infratuzilma, ijtimoiy loyihalar va boshqa muhim sohalarga mablag‘larni yo‘naltirishga imkon beradi. Moliya resurslarining ko‘payishi iqtisodiy o‘sish va raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi.

Korruptsiya va boshqaruv: Davlat ishtirokidagi AJ larda korruptsiya va boshqaruv muammolari ko‘plab qiyinchiliklar keltirib chiqarishi mumkin. Bu muammolarni bartaraf etish uchun korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish va shaffoflikni oshirish zarur.

Investitsiya muhitining yaxshilanishi: Davlat AJ lari fond bozorida faol ishtirok etishi investitsiya muhitini yaxshilaydi. Ularning ishtiroki mahalliy va xorijiy investorlarning qiziqishini oshiradi, bu esa mamlakat iqtisodiyoti uchun foydali.

Strategik sektorlar: Davlat AJ lari ko'pincha strategik sektorlarda faoliyat yuritadi (energetika, transport, kommunikatsiyalar va boshqalar). Bu sohalardagi ishtirok, davlatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Xalqaro tajribalar: Dunyo bo'ylab davlat AJ larining fond bozoridagi ishtiroki har xil tajribalarni taklif etadi. Yaponiyadan Singapur gacha bo'lgan mamlakatlarda bunday jamiyatlarning muvaffaqiyati turli omillar bilan bog'liq. Bu tajribalarni o'rganish va moslashtirish O'zbekistonning fond bozorini rivojlantirishda yordam beradi.

Yakuniy xulosa qilib, quyidagilarni aytish mumkin:

Davlat ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlarining fond bozoridagi ishtiroki iqtisodiy rivojlanish uchun muhim imkoniyatlar yaratadi. Ular investitsiya resurslarini jalb qilish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va ijtimoiy rivojlanishga hissa qo'shish orqali mamlakatning iqtisodiy o'sishiga yordam beradi. Biroq, korrupsiya va boshqaruv muammolariga e'tibor qaratish, shaffoflikni oshirish va xalqaro tajribalarni o'rganish davlat AJ larining fond bozoridagi muvaffaqiyatini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Bunday yondashuvlar O'zbekistonning fond bozorini rivojlantirishda muhim ro'l o'ynaydi va iqtisodiy o'sishning yangi manbalarini ochadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 6-maydagi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida" O'RQ-370-son Qonuni.
3. José E. Farinós, C. José García, ana Malbáñez. Operating and stock market performance of state-owned enterprise privatizations: The Spanish experience. // International Review of Financial analysis, Volume 16, Issue 4, 2007, Pages 367-389.
4. S.E. Elmirzayev. Zamonaviy korporativ boshqaruv. // Darslik. – T.: "Iqtisod-moliya", 2019. – 416 b.
5. Hasan axmedov "Davlat korxonalari va ularning fond bozoridagi ishtiroki" maqolasi, 2022-yil.
6. Lex.uz - O'zbekiston Respublikasi ma'lumotlar bazasi.
7. Fondbozori.uz - O'zbekiston Respublikasi Fond birjasini rasmiy sayti.